

BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA MILLIY MEROSIMIZDAN FOYDALANISH MASALALARI

G. Sayfiddinova
Guldu Talabasi

S. Karimova
Guldu O'Qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada mustaqil O'zbekistonimiz kelajagi bo'lmish yosh avlodni har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatliy, teran fikrli, sog'lom tafakkur sohibi etib tarbiyalashda milliy merosimizdan unumli foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: barkamol avlod, milliy tarbiya, milliy meros, yoshlar kamoloti,milliy qadriyatlar.

Mamlakatimiz mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin ma'naviy kamolot masalasiga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Chunki, jamiyatning taraqqiyoti ma'naviyat yuksalishiga bevosita bog'liq. Ma'naviyatning yuksalishi esa, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy rivojiga asos bo'lib hizmat qiladi. Yuksak ma'naviyat har qanday vaziyatda ham mamlakat kelajagining asosiy omillaridan biri bo'lgan. Ma'naviy jixatdan qashshoqlashgan mamlakat buyuk , porloq istiqbolga ega davlat bo'la olmaydi. Bu haqida birinchi Prezidentimiz: "Ma'naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi" degan fikrlarni aytib o'tadilar.

Jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi, jahon hamjamiyatiga yuz tutishi, kelajagi istiqbolli bo'lishi uchun uning xalqi, ayniqsa millatning, mamlakatning ertangi ishonchi bo'lgan yosh avlodning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy jihatdan ham sog'lom bo'lishi juda muhim. Darhaqiqat, ma'naviyatni yuksaltirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lsa, kelajagimiz poydevori bo'lmish yoshlar qalbi va ongiga boy ma'naviy merosni singdirish asosida barkamol avlodni shakllantirish esa undan ham dolzarb vazifadir. Chunki vatanimiz kelajagi, xalqimiz oldida turgan ulkan maqsadlarga erishish avvalo yoshlarimizning har tomonlama barkamol inson bo'lib voyaga etishiga bog'liq.

Milliy meros- tarixiy taraqqiyotning o'tmishga aylangan bosqichida muayyan millatning ajdodlari aql-zakovati, qobilyati va mehnat bilan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari majmuuni ifodalovchi tushuncha. Har bir millatning milliy merosi o'sha millat tomonidan yaratilgan moddiy, ma'naviy va boshqa barcha turdag'i merosni qamrab oladi. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlaganidek: " Biz... ajdodlarimizdan qolgan qadriyatlar va urf-odatlarga, nasl-nasabimiz va qonimizga singib ketgan buyuk hayotbaxsh kuchga egamiz. Bu boradagi ustunligimiz butun ma'rifiy dunyoda e'tirof etilgan. Ana shu qutlug' merosga munosib bo'lib yashash, bu beqiyos boylikni yanada rivojlantirib, milliy o'zligimiz va umuminsoniy qadriyatlar asosida keljagimiz binosini barpo etish muqaddas burchimizdir".

Milliy meros quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

Milliy urf-odat, an'ana, marosim, qadriyatlar

Dunyoqarash

Turli rasm-rusumlar

Dunyo ahamiyatiga teng bo'lgan kashfiyotlar

Millatdan etishib chiqqan allomalar va ular yaratgan asarlar

Davlatchilik

Milliy-ma'daniy boyliklar,tarixiy yodgorliklar va...

Asrlar mobaynida shakllangan, avloddan-avlodga beba ho meros sifatida o'tib kelayotgan urf-odat,an'ana va marosimlar yosh avlodni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Milliy qadriyatlar millat a'zolari tomonidan ming yillar davomida yaratiladi. Milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash millatni o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy bo'g'inidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan birga qo'shilib, jamiyatimiz taraqqiyotini tezlatadi. Xalqimizning milliy qadriyatları 3 ming yildan ortiq davrni o'zida mujassam etgan. Bizning milliy qadriyatlarimiz: tug'ilgan makon va ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomilada tavoze, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan ham harakterlanadi. Milliy merosimizning tarkibiy qismi bo'lmish qadriyatlarimiz jahonning boshqa xalqlariga o'xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusmlar, marosimlar va an'analardagi o'ziga xosligi bilan farqlanadi.Ana shu o'ziga xos jihatlarni yoshlar ongiga singdirish orqali, ularni ma'naviy salohiyatini yanada boyitish lozim.

Milliy merosimizning noyob durdonasi bu - "Avesto". Mazkur manba yosh avlodni tarbiyalashda asosiy omil hisoblanadi. Kitobda ilgari surilgan g'oyalar yoshlarni nafaqat ma'naviy o'sishida, balki ekologik,huquqiy ongini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Avestodek buyuk bir meros faqatgina xalqimizning qadimiyigini tasdiqlovchi tarixiy xujjat bo'libgina qolmasdan , avlod-ajdodlarimizning hali dunyoning boshqa bir zaminlarida ,xususan, hozir taraqqiy etgan mamlakatlarida davlat, uni shakllantirish , idora etish, ezgulikni ulug'lash kabi g'oyalari hali bo'limgan vaqtida O'zbekistonning avlod-ajdodlari shakllantira olganliklarini tasdiqlovchi moddiy boylik hamdir.Uning moddiyligi shundaki, u inson aql-zakovati va faol mehnati evaziga dunyoga kelgan. Avestoning yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni masalasi haqida fikr yuritar ekanmiz,unda bundan uch ming yillar oldin ilgari surilgan har bir g'oya hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganini,ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal tushunchalari hamon ma'naviy kamolot omili bo'lib kelayotgani,yana bir bor uni naqadar beba ho manba ekanligini isbotlab beradi.

Milliy merosning dunyo ahamiyatiga ega muhim qismi,fan madaniyat,falsafa,tehnika,teknologiya va boshqa sohalarda amalga oshirilgan kashfiyotlar,g'oyalar asarlar,yuksak intellektual ma'naviy salohiyat sohiblari bo'lgan Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Alisher Navoiy, Bobur, Mirzo Ulug'bek, kabi ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan.

O'z asarlarida adolat va insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etgan Xoja Ahmad Yassaviy, Bohouddin Naqshband ,Najmuddin Kubro,Imom at-Termizi,Imom al-Buxoriy, Burhoniddin al-Marg'inoniy,Az-Zamaxshariy,Abu Mansur Moturudiy kabi buyuk allomalarimiz yaratib qoldirgan durdonalardan bashariyat asosiy manba sifatida foydalanib kelmoqda. Bu haqiqatni hech kim inkor etolmaydi.Shunday ekan, ajdodlarimiz qoldirgan merosni chuqur o'rganib,tahlil etib, ulardan yosh avlodni tarbiyalashda foydalanish zarur.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Agar xalq chinor bo'lsa,uni ildizi tayanchi, uni ushlab turadigan va voyaga yetkazadigan qudratli manba uning merosi,tarixiy xotirasi hisoblanadi. Biz an'analarga boy, o'z tarixi va o'tmishiga ega bo'lgan, yuksak ma'naviy fazilatlari bilan dunyonи hayratga solgan insonlarni farzandlarimiz.Ana shu madaniy-ma'naviy qadriyatlarni, boy merosimizni o'zlashtirish asosida millatning, mamlakatning ertasi bo'lgan mustaqil fikrli,kuchli ruhiyat sohibi intellektual avlodni

tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb fazifasidir.Zero, ruhiyati kuchli yoshlari bor mamlakatning moddiy farovonligi , taraqqiyoti va istiqboli porloq bo'ladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro`Yxati

1. Bayeshanov, A. (2022). YOSHLARNI MILLIY G'OYA RUHIDA TARBIYALASHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(1), 932-935.
2. Karimova, S. (2022). MAFKURAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MEROSIMIZNING ORNI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(1), 485-488.
3. Усманова, Х. М. (2022). БАРКАМОЛ АВЛОД ТАРБИЯСИДА ШАРҚОНА АХЛОҚНИНГ ЎРНИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(2), 51-57.
4. Мавлянов, У. Н. (2021). ALI SAFIY AXLOQ QOIDALARIGA AMAL QILISHNING AHAMIYATI HAQIDA. ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ, (1).
5. Каримова, С. (2021). Mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashning tarkibiy funksional tahlili. Общество и инновации, 2(11/S), 273-279.
6. Mustafayevich, B. A. (2021). Use of Fiction in the Formation of the Worldview of Youth. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(5), 37-40.